

MAKTAB DARSLIKLARIDA ABDULLA ORIPOV LIRIKASINING INTEGRATSIYA ORQALI O'QITISH USULLARI

*Usarova Laylo Ibragimovna,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute dotsenti
laylousarova14@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada Abdulla Oripovning ijodi, lirik asarlari tahlili asosida o'qitishning zamonaviy tendensiyalari va yondoshuvlari bilan oquvchilarga mazmun-mohiyatan ochib berishdan iborat. Ma'lumki, hozirgi o'qitishning zamonaviy talablaridan biri talabalar bilimini, ijodiy fikrlarini oshirish, yaratuvchanlik g'oyasini shakllantirishga qaratilgan ta'limning integratsiya orqali oqitish dolzarb mavzulardan biridir. Quyida Abdulla Oripov she'rlarining integrativ tahlili haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Lirik, ijod, integratsiya, badiiy asar, lirik qahramon, adabiyot, ta'lim texnologiyasi, STEAM ta'lim dasturi, fanlararo aloqa, taraqqiyot, Vatanparvarlik, milliy qadriyat, ona tili, do'stlik, ramz, ishora.

ABDULLA ORIPOV'UN SÖZLERİNİN OKUL KİTAPLARINA ENTEGRE EDİLMESİYLE ÖĞRETİM YÖNTEMLERİ

*Usarova Layla İbrahimovna,
Özbek-Finlandiya pedagoji enstitüsü doçenti*

Özet. Makale, Abdulla Oripov'un yaratıcı ve lirik eserlerinin analizine dayanarak öğrencilere yönelik çağdaş öğretim eğilimlerinin ve yaklaşımlarının özünü ortaya koymayı amaçlamaktadır. Bilindiği üzere çağdaş eğitimin çağdaş gereksinimlerinden biri de öğrencilerin bilgisini artırmayı, yaratıcı düşünmeyi, yaratıcılık fikrini oluşturmayı amaçlayan eğitimin bütünleştirilmesidir. Aşağıda Abdulla Oripov'un şiirlerinin bütüncül bir analizi yer almaktadır.

Anahtar kelimeler. Sözcükler: Lirik, yaratıcılık, bütünleştirme, sanat eseri, lirik kahraman, edebiyat, eğitim teknolojisi, STEAM eğitim programı, disiplinlerarası iletişim, gelişim, vatanseverlik, ulusal değer, ana dil, dostluk, sembol, jest.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ПОСРЕДСТВОМ ИНТЕГРАЦИИ СТИХОВ АБДУЛЛЫ ОРИПОВА В ШКОЛЬНЫХ УЧЕБНИКАХ

*Усарова Лейла Ибрагимовна,
доцент Узбекско-Финского педагогического института*

Аннотация. Цель статьи – раскрыть сущность современных педагогических тенденций и подходов к обучению студентов на основе анализа творчества и лирических произведений Абдуллы Орипова. Как известно, одним из современных требований современного образования является интеграция обучения, направленная на повышение уровня знаний учащихся, развитие творческого мышления, формирование у них представления о творчестве. Ниже представлен интегративный анализ стихотворений Абдуллы Орипова.

Ключевые слова. Лирика, творчество, интеграция, художественное произведение, лирический герой, литература, образовательная технология, образовательная программа STEAM, межпредметная связь, развитие, патриотизм, национальная ценность, родной язык, дружба, символ, жест.

TEACHING METHODS THROUGH THE INTEGRATION

OF ABDULLA ORIPOV'S LYRICS IN SCHOOL TEXTBOOKS

Usarova Laylo Ibragimovna,

Uzbek-Finnish pedagogical institute associate professor

Abstract. *The article aims to reveal the essence of modern trends and approaches to teaching based on the analysis of Abdulla Oripov's creative work and lyrical works. As is known, one of the modern requirements of modern teaching is the integration of education aimed at increasing students' knowledge, creative thinking, and forming the idea of creativity. Below is a description of the integrative analysis of Abdulla Oripov's poems.*

Keywords. *Lyric, creativity, integration, work of art, lyrical hero, literature, educational technology, STEAM educational program, interdisciplinary communication, development, Patriotism, national value, native language, friendship, symbol, gesture.*

Adabiyot inson ruhiyatining badiiy aksidir. Ababiyot orqali biz inson ruhiy kechinmalari, tafakkuri va dunyoqarashini badiiy shaklda ifodalovchi san'at va madaniyat sohasi bo'lib, u jamiyat hayotining tarixiy, ma'naviy va estetik ko'zgusini, insonning o'zini anglash yo'lida qilgan sukunatdagi hayqirig'idir. U bizni o'tmish bilan bog'laydi, kelajak sari yetaklaydi va bugunning mohiyatini anglab yetishda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda ta'lim tizimida adabiyot darslarining o'rni beqiyos ekanligini ko'rish mumkin. Ta'lim tizimlarida lirik asarlarni zamonaviy texnologiyalar asosida olib borishning bir qancha yangi shakllari yuzaga kelmoqda. Ta'lim tizimida zabardast shoirlarimizning she'rlarini integratsiyalab o'qitish, o'rgatish va tahlil qilishning bir qancha yangi metod va vositalardan foydalanib o'tiladiga dars mashg'ulotlarining o'rni bugungi kunda dolzarb mavzulardan biridi.

Ilm-u fan taraqqiyoti ko'z ilg'amas darajada tezlashgan davrda fanlararo integratsiya uzluksiz ta'limni yo'lga qo'yishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Integratsiya atamasi lotincha integratio so'zidan olingan bo'lib qo'shilish, birlashish ma'nolarini anglatadi. Ma'lumotlarni integratsiyalash har xil manbalarda mavjud bo'lgan materiallarni ma'lum maqsad asosida birlashtirib taqdim etishni nazarda tutadi. Integratsiyalashgan ta'lim va fanlararo aloqa bir-birini to'ldiradigan ikki xil tushuncha. Fanlararo aloqada o'quvchining ma'lum bilimlarni o'zlashtirish jarayonida u yoki bu muammoni imkon qadar chuqur anglash hamda olingan bilimlarni amaliyotga samarali joriy etishiga imkon berish maqsadida o'quv fanlari orasida o'rnatiladigan aloqa nazarda tutiladi. Integratsiya esa fanlararo aloqaga, ya'ni umuman fanlar, o'quv fanlari, ularning bo'lim va mavzulari bo'yicha olingan bilimlarga tayanilgan holda o'rganilgan masalaga xos bo'lgan yetakchi g'oyalar hamda hodisalarning izchil, har jihatdan chuqur hamda serqirra ochilishi demakdir. [1; 29]. Hozirgi kun ta'limida adabiyot darslarida buyuk ijodkorlarning asarlarini zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanib dars mashg'ulotlarini tashkil qilish muhim o'rin egallamoqda. Ta'lim nafaqat bilim berish, balki insonni shaxs sifatida shakllantirish, unga ma'naviyat, axloq va badiiy tafakkur berish vazifasini ham bajaradi. Global ta'limga integratsiya 20-asr oxiri - 21-asr boshlarida paydo bo'lgan tendentsiyadir. zamonaviy pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biriga aylanadi. U alohida mamlakatlarda ham, mintaqaviy va global miqyosda ham rivojlanmoqda. Ta'limdagi integratsiya milliy tuzilmalarning yaqinlashishi, o'zaro ta'siri va o'zaro kirib borishining murakkab va keng qamrovli jarayonining bir qismidir. Albatta, bu global ta'limdagi integratsiya muammolarini o'rganishga «katta tizimlar» tahlilining murakkabligi va qarama-qarshiligini kiritadi. [2; 4]

Bu jarayonda adabiyot, ayniqsa Abdulla Oripov ijodi alohida o'rin egallaydi. Shoirning asarlari o'zbek xalqining ruhiyati, ma'naviy dunyosi, orzu-umidlari va orifona falsafasini badiiy ifoda etadi. Abdulla Oripov asarlari ta'limda o'qitishning bir qancha jihatlari bilan ajralib turadi. Adibning Vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga asoslangan "O'zbekman", "Qasamyod", "Buyuk yo'l" singari asarlari orqali o'quvchilarda yurtga muhabbat, milliy g'urur, fidoyilik tuyg'ulari shakllanadi. Falsafiy tafakkur va mustaqil fikrlash va dunyoqarashni shakllantiruvchi "Inson", "Najot" kabi she'rlar o'quvchini hayot, borliq, e'tiqod haqida mushohadaga chaqiradi. Shoirning

soʻz sanʼatiga muhabbat uygʻotuvchi "Til haqida", "Sen bahorni sogʻinmadingmi?" kabi sheʼrlari oʻquvchilarda ona tiliga hurmat va estetik didni shakllantirishga yordam beradi. Oripov asarlarida mehr, poklik, ona hurmati, doʻstlik, sabr-toqat kabi ustuvor gʻoyalar insoniylik, axloq, va ruhiy tarbiyaning asosi sifatida oʻrin egallaydi.

Oʻrta maktabning 10-sinf darsligida adibning 1969-yilda yozilgan "Yurtim shamoli" sheri kiritilgan. Ushbu sherida Vatan shamoli orqali insonning ichki kechinmalari, ruhiy holati va Vatanga boʻlgan muhabbat gʻoyalari goʻzal badiiy estetik mahurat bilan ifodalab berilgan. Sheʼrda shoirning badiiy mahorati, obrazlar yaratish sanʼati yaqqol koʻrinadi. Shamol obrazining turli maʼnolarda qoʻllanilishi - Vatan ruhi, inson ichki kechinmalari, hayotning oʻzgaruvchanligi - adabiy tahlil uchun boy materialdir. Oʻquvchilarga ushbu sheʼrni ifodali oʻqish va tahlil qilib berish bilan bir qatorda integratsiyalab oʻqitish usullarini koʻrib chiqamiz.

Darsda "Yurtim shamoli" sherini tabiyatshunoslik fani bilan integratsiya qilib oʻrganilganda oʻzi yashab turgan yurt shamoliga ahamiyat qaratiladi.

Sheʼrda shamol obraziga alohida urgʻu berilgan. Shamol – bu tabiat hodisasi boʻlib, u harakat, oʻzgarish va yangilanish ramzi sifatida qaraladi. Shoir shamolni Vatanining ruhi, harakati sifatida tasvirlaydi:

*"Sen esding - ochildi yorning jamoli,
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli."*

u misralarda shamolning esishi bilan yorning jamoli ochilishi tasvirlanadi, bu esa shamolning yangilanish va uygʻonish ramzi ekanligini koʻrsatadi.

Tarixiy ramzlar va ishoralar bilan oʻrganilganda Sheʼrda shoirning ichki kechinmalari, ruhiy holati shamol obrazida ifodalanadi. U oʻzini shamolga qiyoslaydi, bu esa insonning oʻzini tabiat bilan uygʻunlashtirish istagini bildiradi:

*"Men-ku bu dunyoda bir zori visol,
Karbalo dashtida Majnun sifatman."*

Bu misralarda shoir oʻzini Karbalo voqeasi bilan bogʻlaydi, bu esa tarixiy voqealarga ishora qiladi. Sheʼrda shoirning badiiy mahorati, obrazlar yaratish sanʼati yaqqol koʻrinadi. Shamol obrazining turli maʼnolarda qoʻllanilishi – Vatan ruhi, inson kechinmalari, hayotning oʻzgaruvchanligi – adabiy tahlil uchun boy manbadir.

"Yurtim shamoli" sheʼri tabiat bilan boglab oʻrganilganda, tabiat hodisasi boʻlgan shamol orqali insonning ichki kechinmalari, ruhiy holati, tarix bilan bogʻlanganda esa, tarixiy voqealar, milliy uygʻonish va Vatanga boʻlgan muhabbatni ifodalovchi asar sifatida talqin qilish mumkin. Sheʼrni tabiat va tarix fani bilan integratsiyalash orqali oʻquvchilar yurtning boshqalarga oʻxshamaydigan goʻzal tabiati, milliy oʻzlik, tarixiy xotira va mustaqillik gʻoyalarini chuqurroq anglab yetishga harakat qiladilar.

Soʻnggi paytlarda STEM dasturlariga sanʼatni qoʻshish gʻoyasi tobora kuchayib bormoqda. STEM dasturining asosiy shakli oʻtiladigan mavzuni STEM taʼlimi (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) bogʻlab oʻrganish orqali ijodiy yangi ixtirolar qilish, ushbu fanlar tarkibida yaratuvchanlik gʻoyalarini ilgari suradigan fan bu – Sanʼat deb qarashadi. STEAM. Bu fan, texnologiya, muhandislik, sanʼat va matematikani anglatadi. Adabiyot darslarida lirik asarlarni sanʼat uygʻunligida integratsiya qilish zamonaviy taʼlim texnologiyalarida sinalgan usullardan biridir. Ulugʻ adibimiz Abdulla Oripovning "Sen bahorni sogʻinmadingmi?" sheʼrini tasviriy sanʼat bilan tahliliy integratsiya qilish orqali badiiy-estetik yondashuv, koʻrish, sezish va anglash hissiyotlarini birlashtirish mumkin.

Lirik qahramon va tabiat: Rang va chiziqlar orqali ifodalash

*"Uygʻonguvchi bogʻlarni kezdim,
Topay dedim qirdan izingni..."*

Bu misralarda bahorning uygʻonishi tasvirlangan. Tasviriy sanʼatda bu holatni bahoriy manzara orqali koʻrsatish mumkin:

Tasviriy ifoda:

Yashillikka burkangan bogʻlar,

Gullagan daraxtlar orasida yakka-yu yolg'iz sayr qilayotgan inson silueti,

Yorqin ranglar – yashil, pushti, oq, sariq – hayot va umid ramzlari.

Harakat va tovush: Bahorning musiqiy va vizual ritmi

“Qorliklardan sipqarilgan suv, Daralarda uradi javlon.”

Bu misralar tovush va harakatni o'zida mujassam etadi. Tasviriy san'atda dinamika muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Abdulla Oripov asarlarini quyidagi fanlar bilan bog'lab o'rganish mumkin:

Adabiyot: Shoirning hayoti, uslubi, adabiy yo'nalishi tahlili,

- ❖ Tasviriy san'at: She'rlardagi obrazlar asosida rasm chizish, sahna ko'rinmalari yaratish,
- ❖ Tarix: asarlar orqali muayyan davrlar kontekstini tushunish,
- ❖ Ona tili: she'riy til, stilistik vositalar, morfologik tahlil mashqlari,
- ❖ Informatika yoki texnologiya: She'rlardan ilhomlangan video, prezentatsiya, kollaj yoki raqamli ijodiy ishlar tayyorlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Husanboyeva Q., Niyoz metova R. Adabiyot o'qitish metodikasi o'quv qo'llanma. – Toshkent: “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2018-yil.
2. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. “Sharq nashriyoti”. – Toshkent-2019
3. Atoeva M. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 йил № 9)
4. Астадурьян А. Интеграция учебных ситуаций в процессе обучения.– Краснодар. 2005.
5. Азизовна, Ю.С. Развитие познавательных навыков учащихся в процессе языкового образования. *JournalNX* , 514-516.
6. Азизовна, Ю.С. Формирование чувства уважения у студентов. *Журнал NX* , 1026-1028.
7. Ибрагимовна, УЛ (2024). Абдулла Ориповнинг «Сохибкирон» драмаси мардонаворлик ва жасурлик г'ойаларининг улуг'линиши. Теория современных научных исследований в области педагогики
8. Mavluda, A., Gulbonu, T., & Ibragimovna, U. L. (2024). Masalchilik va Ezop masallari. *Intellectual education technological solutions and innovative digital tools*, 3(32), 99-100.
9. Ibragimovna, U. L. (2024). “Jannatga yo'l” dostonidagi obrazlarga xos insoniy fazilatlar. *The theory of recent scientific research in the field of pedagogy*, 3(27), 170-171.